

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG`ONA POLITEXNIKA INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”

**Farg`ona politexnika
instituti rektori**

_____ **O‘.R.Salomov**

“ _____ ” _____ **2023 y.**

**18.00.02 – "Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini
rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi
(texnika fanlari)" ixtisosligi bo`yicha (PhD) tayanch doktoranturaga kirish
imtihoni**

DASTURI

Farg`ona 2023

“Mutahassislik” fanidan kirish imtixonini dasturi Farg`ona politexnika instituti kengashining 2023 yil “___” _____ dagi “___” – sonli majlisida muhokama etildi va tasdiqlandi.

Dasturni tuzuvchilar:

t.f.n.dotsent Axmedov J.D. (FarPI)

PhD,dotsent Jo‘rayev O‘.Sh.

Arxitektura kafedrasi mudiri

t.f.n. dotsent J.D.Axmedov

Kirish

Aholining, ayniqsa, qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholining sharoitlarining yaxshilanishi Respublikamiz shaharsozligida jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar sodir etilishini nazarda tutadi. Yaqin kunlarga urbanistika bo`yicha aksariyat tadqiqotlar, garchi urbanizatsiya jarayoni davomida shaharlarning aloqalari kengayib, chegaralari yoyilib ketsada, asosan shaharlarga bag`ishlanar edi. Rivojlanayotgan shaharlar o`z ta`sir hududlarini faol kengaytirgan holda qishloq joylardagi turmushga sezilarli darajada ta`sir o`tkazadi. Shu sababli, ularning istiqbolli rivojlanishi masalalari yon-atrofdagi qishloq aholi punktlarini hisobga olib turib hal qilinishi lozim.

Shaharsozlik g`oyalari va shahar landshafti yechimini ishlab chiqishda, bino va inshootlarni loyihalashda hamda qurilishni amalga oshirishda ijtimoiy, iqtisodiy, energosamaradorlik masalalarni yechimini topish va bu borada ilmiy tadqiqotlarni olib borish hamda inson omili, hayoti faoliyati uchun sun`iy muhitni yaratish o`z talablarini qo`ymoqda. Bu borada ko`plab ilmiy izlanishlar qilingan va olib borilmoqda. Ana shu masalarga oid jarayonlarni dunyo amaliyotida ko`rish, kuzatish, ilmiy tahlil qilish, tadqiqot olib borish va ulardan to`g`ri foydalanish muhim ahamit kasb etadi. Ushbu dastur 18.00.02 – "Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi" ixtisosligi pasporti asosida ishlab chiqildi. Dasturni tuzishda rayonlashtirish, shaharsozlik, qishloq turar joylarini rejalashtirish, landshaft arxitekturasi, bino va inshootlar arxitekturasi barcha mutaxassislik fanlariga doir mavzular kiritilgan. Dasturga shahar va qishloqlarni arxitekturaviy-rejaviy tashkil etish, shaharsozlikning kelajak g`oyalarini ishlab chiqish, shaharlar landshaftini tashkil etishda mavjud muammolarni hal qilish masalalari, bino va inshootlar loyihalashda shaharsozlik masalalarini hal qilishning o`ziga xos xususiyatlari, muammolar yechimiga qaratilgan savollar kiritilgan.

Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish.

Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi

1. Shahar va qishloqlarni arxitekturaviy tashkil etish.

Qishloq axoli punktlarining tarxiiy tarkibi tajribasi. Sovet shaharsozligi tajribasida qishloqlar tarhi (rejasi) tushunchasi va ularning qishloq bosh rejalariga tadbiq etilishi. Transport tizimlari va ko`chalarning qishloq bosh rejalariga qo`llanishi. Har bir qishloq axoli punktlarining rivojlanish istiqbolining hal qiluvchi kompleks shaharsozlik xujjatlari bo`yicha ma'lumotlar.

O`zbekistonga xos bo`lgan tarixiiy shaharlarni tarxiiy qonuniyatlarining qadimdan bugunchaga rivoji. Bugungi saqlash va ta'mirlash muammolari.

Yangi shaharsozlikning nazariyasida va amaliyotida tarixiiy shaharlarni saqlash va ta'mirlash. O`zbekiston va chet el mamlakatlari tajribasi.

Mantiqan to`g`ri nazariyalar va amaliyotni qabul qilish yoki rad etish misollari.

Tarixiiy shaharlarni saqlash va ta'mirlash qarorlarini, loyihalarining uchta turi: tizimga keltirilganlar (well-structured), tizimlari nuqsonli (ill-structured), mantiqan va miqdoran samarasiz (unstructured).

2. Tarixiiy shaharlarni saqlash va ta'mirlash.

O`zbekistonga xos bo`lgan tarixiiy shaharlarni tarxiiy qonuniyatlarining qadimdan bugunchaga rivoji. Bugungi saqlash va ta'mirlash muammolari.

Yangi shaharsozlikning nazariyasida va amaliyotida tarixiiy shaharlarni saqlash va ta'mirlash. O`zbekiston va chet el mamlakatlari tajribasi.

Mantiqan to`g`ri nazariyalar va amaliyotni qabul qilish yoki rad etish misollari.

Tarixiiy shaharlarni saqlash va ta'mirlash qarorlarini, loyihalarining uchta turi: tizimga keltirilganlar (well-structured), tizimlari nuqsonli (ill-structured), mantiqan va miqdoran samarasiz (unstructured).

Samarali qarorlarni, loyihalarni tarixiiy shaharlarga joriy qilish metodologiyasi: vaziyat, maqsadlar, maqsadlarga erishish mezonlari, qarorlar

loyihalar modellari, eng yaxshi samara beradigan qaror loyiha, qarorni loyihani muvofiqlashtirish (coordination), qaror va loyihani amaliyotga tayyorlash, qaror va loyihani tasdiqlash, qaror va loyihani amalga oshirishni boshqarish, qaror va loyihaning samarasini tekshirish (monitoring).

Tarixiy shaharlarni samarali metodologiyalarini o`quv jarayoniga va amaliyotga joriy qilish. Yangi bilim, ko`nikma va malakalar. Malakaga talablar.

3. Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi

Shaharsozlikning zamonaviy tendentsiyalari va muammolari. Zamonaviy shaharsozlikning tug`ilishi. Shaharsozlik nazariyalarining rivojlanishi. Aholi joylashuvi. Shaharsozlik nazariyasining boshqa bilim sohalari bilan bog`liqligi. Kompozitsion-shaharsozlik tahlil. Shahar kompozitsiyasining nazariy va ijodiy muammolari. Shaharlar va urbanizatsiyalashgan hududlarni barqaror rivojlanishi. Barqaror rivojlanish kompozitsiyasining derektiv, normativ-xuquqiy va ijodiy -loyihaviy asoslari. Barqaror rivojlanish mezonlari. Shaharsozlik tadqiqotlarining aktual yo`nalishlari va barqaror rivojlanish muammolari. Ideal shaharsozlik modellari nazariyasi va ularning amalga oshirish usullari. Shaharsozlik faoliyatining ijtimoiy – iqtisodiyotga o`zaro bog`liqligi. Ekologik va iqtisodiy yechimlarining bir-biriga bog`liqligi. Barqaror rivojlanish kompozitsiyasining amalga oshish mexanizmlari: shaharsozlik siyosati, dasturiy ta`minot, normativ-huquqiy tartibga solish, shaharsozlik loyihalash.

Landshaft arxitekturasi maqsadi, vazifalari va darajalari. Landshaft arxitekturasi ob`yektlari va shahar ochiq xududlarining asosiy darajalari va yo`nalishlari. Landshaftshunoslik: landshaftlar tipologiyasi va klassifikatsiyasi. Landshaft arxitekturasi genezisi: Landshaft arxitekturasi rivojlanishining asosiy bosqichlari va omillari. Landshaft rejalashtirishning regional asoslari. Landshaft arxitekturasi shaharsozlik asoslari. Landshaft urbanizmi – landshaft arxitekturasi rivojlanishidagi yangi yo`nalish. Umumshahar va tuman markazini landshaft loyihaviy tashkil etish. Shahar bog`lari va parklari. Turar joy

tumanlari, sanoat va rekreatsion hududlarini landshaft-loyihaviy tashkil etish va rekonstruktsiya qilish. Bog`-park kompozitsiyasining nazariy asoslari. Fazo, tekislik, hajm, hajmiy-fazoviy kompozitsiya. Landshaft arxitekturasi ob'yektlarini loyihalash.

4. Bino va inshootlar arxitekturasi

Turar-joy, jamoat, sanoat, ma'muriy binolarning tipologik asoslari, funktsional – loyihaviy, texnik, iqtisodiy yechimlari; turar joy va jamoat binolarining soniyali sifatleri, qurilishi parametrlari; ichki muhitni funktsional shakllantirish tamoyillari; bino va inshootlarnin texnologik, kommunikatsiyaviy bog`liqliklari to`g`risidagi tushuncha; mavjud bino va inshootlarining funktsional tashkil qilish bo`yicha tahlil; arxitekturaviy-tipologik vazifalarni yechish; xizmat ko`rsatish bosqichlari, bino va inshootlar klassifikatsiyasi, fuqarolik binolarning shaharda joylashuvi; jamoat va ma'muriy binolarning shahardagi dominantlik roli; turar-joylar, xonadon tarkibi, kam qavatli, o`rta qavatli, ko`p qavatli, yacheykali, qisqa muddatli turar-joy binolari; o`quv-tarbiya, tomosha, ilmiy muassasa, sport, sog`lomlashtirish, ma'muriy, dam olish binolari.

Jamoat, turar joy, sanoat, ko`pfunktsiyali bino va inshootlarni arxitekturaviy-fazoviy shakli va ularning funktsional, texnologik yechimini loyixalashtirish. Arxitekturaviy loyihalashda shaharsozlikdagi vazifasini, bino tiplari normalarini, ekologik talablarini va xonalar turkimlarini aniqlash belgilanadi. Loyihalarni tuzishda grafik ko`nikma, funktsional, arxitektura - badiiy, konstruktiv va iqtisodiy tomondan loyihalash uslublarini o`zlashtirish, klauzura ishlarini bajarish, qisqa vaqtda bajariladigan loyihalarda badiiy kompozitsion, funktsional talablarni his etish, loyiha bosqichlarida ijodiy yondoshish, eskiz g`oya ustida ishlash, arxitekturaviy muhitni tashkil etish, loyihalashga shaxsiy ijodiy yondoshish.

**Yozma ish sav o'llariga berilgan javoblarni baholash quyidagi mezon
talablari asosida amalga oshiriladi:**

Yozma ish javoblariga quyiladigan talablar	Baholash ballari
Har bir savollarga javoblarni baholash mezonlari –15-25ball	
a) berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolning nazariy va amaliy jihatlarini to'liq ochib bera olsa, xulosa va qaror qabul qilsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa.	86-100
b) berilgan savollarni yetarli darajada bilsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolning nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini yetarlicha, ravon bayon qila olsa.	71-85
v) berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa.	55-70
g) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa.	0-54

18.00.02-Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi

bo`yicha savollar

1. Landshaft rejalashtirishni dastlabki shartlari rivojlantirish.
2. Landshaft rejalashtirishni maksad va vazifalari.
3. O`zbekistonda landschaft rejalashtirishni asosiy muammolari.
4. Uzbekistonda landschaft rejalashtirining rivojlantirish kontseptsiyasi
5. Turistik va rekreatsion rivojlanish xududlarini landschaft rejalashtirish.
6. Dam olish va turizm markazlarini tashkkillashtirishda ximoya kilish uslublarini ayting?
7. Suv manbalari va suv omborlarini landschaft rejalashtirish va rekreatsion tashkillashtirish.
8. Transport magistrallari, temiryulva texnik inshootlari xududlarini landschaft rejalashtirish.
9. Sanoat xududlari va korxonalarining landschaft rejalashtirishni tashkil etish qanday omillar ta'sir etadi?
10. Jamiyatni zamonaviy rivojlanish sharoitida landschaft rejalashtirishni roli.

Rayonlashtirish

1. Tumanni rejalashtirishning maksad va vazifalari?
2. Tumanni rejalashtirish va axoli joylashuvi?
3. Tumanni rejalashtirish sxemasi?
4. Tumanni rejalashtirish loyixasi?
5. Tumanni rejalashtirish va sanoat?
6. Kishloq xududlarini me'moriy-rejaviy tashkil etish?
7. Tumanni rejalashtirishda tabiiy-iklimiy omillarni xisobga olish?
8. Tumanni rejalashtirishda ijtimoiy-iktisodiy omillarni xisobga olish?
9. Tumanni rejalashtirish va Bosh plan urtasidagi bogliklik?
10. Tumanni rejalashtirish sxemasi va loyixasini yaratishni tashkil etish?

Shaharsozlik

1. Shaharsozlik masalalarida majburiy shart bu?
2. Katta shahar va aglomeratsiyalarining muxim kamchiliklari nimalardan iborat?
3. Kimni birinchi bo`lib shahar kuruvchi deb xisoblaydi?
4. Axoli joylashuvi turi qanday aniklanadi?

5. Tuman yashovchilarining eng yuqori sonini aniqlashni rejalashtirishda kunlik ehtiyojlar ta'minlash sharti bilan qanday aniqlanadi?
6. Tuman rejalashtirishning sxemasi qaysi muddatga mo'ljallangan bo'lib amalga oshiriladi?
7. Shaharlar tasniflash quyidagi belgilariga asosan amalga oshiriladi?
8. Shaxar paydo bo'lishga sabab bo'lgan korxonalar qanday aniqlanadi?
9. Odamlarga madaniy va maishiy xizmat bilan shug'ullanuvchi muassasalari va korxonalari nima deb ataladi?
10. Shaharsozlikning ijtimoiy demografik vazifalari?

Qishloq aholi punktlarini rejalashtirish.

1. "Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish" (QHALTE) loyihalarning asosiy vazifasi.
2. QHALTE loyihasining shaharlarga ishlanadigan Bosh planlardan farqi.
3. Mahalla Fuqarolari Yig'ini (MFY) qanday ma'muriy organ?
4. O'zR Prezidenti PQ-1103 22aprel 2009 yildagi farmonida qanday maqsadlar nazarda tutilgan.
5. Qishloq aholi punktlarining rekonstruktsiya loyihasini ishlash uchun qanday boshlang'ich ma'lumotlar kerak bo'ladi?
6. Qishloq aholi yashash punktlari aholining soniga qarab qanday guruhlarga bo'linadi?
7. Qaysi aholi punktlari qishloqlararo markaziy xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradi?
8. Qishloq hududini muhandislik tayyorgarligi nima?
9. Sanitariya himoya zonasining kengligi, undan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
10. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish korxonalari qanday rejalashtiriladi?

Arxitekturaviy loyihalash

1. Shahar tizimida (struktura). Jamoat binolarining kompozitsiyasi shaharsozlikni tashkil etuvchi, estetik vasifasi.
2. Yong'in xavfsizligida binolarda odamlarni evakuatsiya qilishdagi talablar. Binolarning yong'inga chidamlilik darajasi.

3. Turar joy va jamoat binolarida quyoshdan saqlagich vositalari va ulardan foydalanish usullari.
4. TSirkllarning asosiy xonalari va texnologiyasi tizimi.
5. Maktab binolarining arxitekturaviy texnologik yechimlari.
6. Jamoat binolarning yuqori darajadagi qumli va chang to`zon rayonlarda qo`llaniladigan rejalashtirish va kompozitsiya usullari.
7. Savdo va maishiy xizmat ko`rsatish muassasalarining arxitekturaviy yechimlari va ularning shaharsozlikda tutgan o`rni.
8. Jamoat binolarining ikkilamchi xonalar turkumi va ularni loyihashga bo`lgan talablari.
9. Xonadon tarkibi , jihozi va ularni loyihalashga bo`lgan talablari.
10. Ko`p qavatli turar joy binolarning arxitekturaviy texnologik yechimlari .

Bino va inshootlar tipologiyasi

1. Ichki bo`shliqni tashkil qilish printsiplari(tamoil). Xonalarni guruhlash kompozitsiyasi tizimi.
2. O`zbekistonning asosiy iqlimiy rayonlariga tavsif bering.
3. Sport inshootlarining turlari.
4. Jamoat binolarining markaziy blokli va pavilion tipidagi kompozitsiyalarning afzallik va kamchiliklari
5. Madaniy ma`rifiy binolarning tipologik yechimlari.
6. Shaharsozlikda yirik binolarining ahamiyati va ularni loyihalashga bo`lgan talablari.
7. Turar uy-joylarning turlari.
8. Bino va inshootlarni loyihalashda ta`sir etuvchi omillarni tavsiflab bering
9. Loyihalashda, ijtimoiy asoslashda, prognozlashda qaysi ilmiy uslublardan foydalaniladi.
10. Xizmat ko`rsatuvchi muassasalarning shaharda joylashuvi.

Asosiy adabiyotlar

1. Isamuxamdova D.U., Adilova L.A. «Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi». Darslik. 1-qism., Toshkent, 2009
2. Isamuxamdova D.U., Adilova L.A. «Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi». Darslik. 2-qism., Toshkent, 2009
3. Isamuxamedova D.U. Ismailov A.T., Xotomov A.T. “Injenerlik obodonlashtirish va transport”. Darslik., 1 qism., Toshkent, 2009
4. Kontseptsiya razvitsiya gradostroitelstva Uzbekistana v usloviyax formirovaniya novix sotsialno-ekonomicheskix otnosheniy. T, TASI 2008
5. . ShNQ 2.07.01-13* Shaxarsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish. T. O`zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo`mitasi. 2009
6. Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi: I qism, o`quv qo`llanma, – Toshkent: IPTD ”Uzbekistan”, 2009 y.
7. Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi:II qism, darslik– Toshkent: TASI 2009 y.
8. “Gradostroitelniy kodeks Respubliki Uzbekistan”. T. 2002 g.
9. Isamuxamdova D.U., Sadikova M.A., Muminova K.R. «Shaharsozlik loyihalash». O`quv qo`llanma, TASI. Toshkent 2015 y.
10. Isamuxamdova D.U., Mirzayev M.K. «Zamonaviy shaharsozlik nazariyasi». O`quv qo`llanma, Toshkent, 2015 y.
11. S.Selimova. “Formirovaniye ponyatiya Landshaftniy urbanizm v gradostroitelstve”.Natsionalnaya akademiya prirodooxrannogo i kurortnogo stroitelstva. Donbass. 2014 g.
12. Ubaydullayev X.M, Inog`omova M.M. «Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari» darslik., Toshkent 2009 y.
13. Xidoyatov T.A. «Tipologiya obuyestvennix zdaniy» o`quv qo`llanma., Tashkent 2008g.
14. X.M.Ubaydullayev, G.I.Korobovtsev, Y.I.Abduraxmanov, Ya.M.Mansurov “Arxitekturaviy loyihalash» o`quv qo`llanma., Toshkent 2012.

15. B.I.Inogomov “Zamonaviy bino va inshootlarni loyihalash” Toshkent o`quv qo`llanma., 2011y
16. A.L.Gedfond “Proyektirovaniye obshestvennix zdaniy” Moskva 2006